
**INGLIZ TILIDA SOME VA ANY NOANIQ OLMOShLARI IFODALAGAN
SINTAKSEMALAR PARADIGMATIK QATORI**

Saitmuxamatova Xushnudabonu G'olib qizi

Samarqand Davlat Chet tillar instituti

Egammazarov Qobil Abdunazarovich

Ilmiy rahbar:

Abstrakt: Ingliz tilida noaniq olmoshlar distribusiyasi, ularning sintaktik o'rni, ularni komponentlarga ajratib tahlil qilishda komponentlarning o'zaro sintaktik aloqalari yunksion modellar yordamida, differensial sintaktik belgilari, morfologik xususiyatlari esa sintagmatik yo'nalishda komponent modellar orqali izohlanadi. Paradigmatik rejada noaniq olmoshlarning kategorial differensial sintaktik-semantik belgilari aniqlanib, ular qamrovida nokategorial sintaktik-semantik belgilari va ularning sintaktik aloqalar yordamida boshqa sintaksemalar bilan bog'lanishi hamda ularning variantlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: sintaktik birliklar, paradigmalar, agentivlik, agentiv, kollektiv, indefinitlik, yadro predikativ, substansial, direktiv...

Chog'ishtirma tilshunoslikda ingliz tili gap qurilmasida noaniq olmoshlarning yadro predikativ 1 o'rnida kelganlarini sintaksemalarga ajratib qiyosiy tahlil qilishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Gap qurilmasini sintaksemalarga ajratib tadqiq qilish jarayonida eng avval kategorial differensial sintaktik-semantik belgililar aniqlanib, ular qamrovida nokategorial differensial sintaktik-semantik belgililar yoritiladi. Ularning aniqlangan sintaktik aloqalari asosida boshqa sintaksemalar bilan bog'lanish holatlari ingliz tilida funksional tahlil qilinadi.

Tilshunos olim O.G.Vetrovaning ta'kidlashicha, substansiallik kategorial sintaktik-semantik belgilardan biri bo'lib, u boshqa differensial sintaktik-semantik belgililar, ya'ni kvalifikativlik va prosessualliklarga qarama-qarshi qo'yish orqali aniqlanadi.⁶⁰

⁶⁰ Akbulatova A.M. Roditeliniy podej v strukture predlojeniy sovremennoogo angliyskogo yazika. Avtoref. diss... kand. filol. nauk. -Leningrad: LOIYa, 1984. – 21 s.

Ingliz tilida yozilgan badiiy asarlardan olingan misollar tasniflanganda kategorial belgilardan substansial va kvalifikativ sintaksemalar doirasida indefinit(noaniq) sintaksema va ularning paradigmatic qatori aniqlandi va taqqoslandi.

Quyidagi misollarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilamiz:

Something might happen

Everybody went to school

Bu gaplar tarkibida something (1), everybody (2) sintaktik birliklar gap tarkibida yadro predikativ 1 o'rnida kelib, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansiallikni ifodalaydi, nokategorial belgilardan agentivlik, agentiv kollektiv va indefinitlikni ifodalaydi. Demak, something substansial indefinit agentiv (SbIndAg) va everybody substansial indefinit agentiv kollektiv (SbIndAgCl) sintaksemani ifodalaydi. Yadro predikativ 2 komponenti o'rnida kelgan went (2), might happen prosessual aksional (2), prosessual aksional modal (1) sintaksemalarni ifodalaydi. Ular yadro predikativ aloqa negizida substansial indefinit agentiv va substansial indefinit agentiv kollektiv sintaksemalar bilan bog'lanadi.⁶¹

Ikkinchi gapda to school sintaktik birlik yadro predikativ 2 komponentiga subordinativ aloqa bilan bog'lanib, substansial lokativ allativ sintaksemani anglatadi. Bu gaplarning sintaksema modellarini quyidagicha izohlash mumkin:

Something might happen.

Noaniq olmoshlar ega o'rnida substansial indefinit agentiv additiv sintaksemani ham ifodalaydi:

- 1) Something else grew in its place.
- 2) Someone else broke a window.
- 3) Someone else could do that job.

Ingliz tili misolida tahlil qilinganda noaniq olmoshlar gap tarkibida yadro predikativ 1 o'rnida substansiallik doirasida indefinit sintaksemaning agentivlik bilan turli xil variantlari, ya'ni kvantitativ, elektiv sintaksemalarni uchratish mumkin:

One of them got in to row.

⁶¹ Antipina N.A. Sostavnie sintaksicheskie elementi "modaliniy glagol + infinitiv" i modalinie konstruksii v strukture predlojeniy sovremennoogo angliyskogo yazika. Avtoref. diss... kand. filol. nauk. -Leningrad, 1974. – 20s.

Gaplar tarkibida One of them— indefinit kvantitativ elektiv sintaksemani ifodalashi bilan birga, agentiv sintaksemani substansiallik doirasida ham ifodalaydi. Indefinit agentiv belgini isbotlashda transformasiya metodidan foydalanish mumkin:

One of them got in to row → one... got in to row.

Demak, yadro predikativ 1 o'rnida kelgan sintaktik birikma substansial indefinit agentiv kvantitativ elektiv sintaksemani ifodalaydi. Bu gapning sintaksem modeli quyidagicha:

One ... got in to

One of them

Sintaksema modeli:

... and one of them was to be a lawyer.

Ushbu gapda one of them— indefinit elektiv sintaksemani ifodalashi bilan yadro predikativ aloqa yordamida was to be a lawyer sintaktik birlik bilan bog'lanadi. Bu gapda noaniq olmoshinefinit elektiv sintaksemaga qo'shimcha identifikasiyalanuvchi(Id1) sintaksemani ifodalaydi va u quyidagi tushirib qoldirish transformasiyasi yordamida isbotlanadi:

... one of them was to be a lawyer → one ... was to be a lawyer → one is a lawyer.

Bundan tashqari, one nokategorial belgilardan kvantitativlikni ifodalaydi. Shunday qilib, one— indefinit kvantitativ elektiv identifikasiyalanuvchi (IndQunElId1) sintaksemani ifodalaydi.⁶²

Noaniq olmoshlar indefinit sintaksemaning variantlaridan biri bo'lgan ob'ekt sintaksemani ham ifodalashi mumkin:

Something had been finished.

Something had to be done about it.

Haqiqatdan had been finished(7), had to be done (8) yadro predikativ

2 o'rnida fe'lning majhul nisbatda prosessual (jarayon) aksional (harakat) gapning ob'ektiga yo'naltirilganligi (directive) uchun yadro predikativ

1 o'rnida kelgan something— substansial indefinit ob'ekt sintaksemani ifodalaydi. Bu masalani A.M.Muxin va T.P.Lomtevlar shunday izohlaydilar "... gap qurilmasida kesim o'rnida kelgan fe'l o'timli bo'lib, u majhul nisbatda ifodalanganda, kesim ifodalagan ish-harakati yadro predikativ 1 o'rnida kelgan substansiya tarqaladi, ya'ni yo'naltiriladi".

⁶² Asadov R.M. Ingliz tili sodda gap qurilmalarida monovalentli va polivalentli komponentlarning sintaksem tahlili // Filol. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD). diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 53b.

Quyida keltirilgan gaplarda substansial indefinite ob'ekt sintaksemani isbotlash uchun ularni transformasiya depassivizasiyaga (aniq nisbat) aylantirish mumkin:

- (7) Something had been finished → He had finished something.
- (8) Something had to be done about it → They had done something.

Bu gaplarda something – substansial indefinite ob'ekt sintaksemani ifodalab, yadro predikativ aloqa yordamida had been finished prosessual aksional direktiv sintaksema bilan bog'lansa, had to be done – prosessual aksional modal direktiv sintaksema bilan bog'lanadi. Ularning sintaksema modellari quyidagicha:

- (7) Something had been finished
- (8) Something had to be done

Gap tarkibida noaniq olmoshlar yadro predikativ 1 o'mida indefinite sintaksemani ifodalagan bir vaqtdayana bir boshqa sintaksema unga yuklatilishi mumkin, ya'ni substansial kvalitativlik yuklatilgan sintaksemaning mavjudligi aniqlanadi.

Everything will be fine.

Everything was different.

Noaniq olmosh everything substansial indefinite sintaksemani ifodalaydi, ammo unga qo'shimcha ifodalangan kvalitativlikni aniqlash uchun yadro predikativ 2 o'rnila kelgan will be great, will be fine, was different birliklarning differensial sintaktik-semantic belgisi kvalifikativlik bo'lib, uning doirasida kvalitativlik mavjudligini anglab etish zarur. Kvalitativ sintaksema, N.A. Antipinaning qayd qilishicha, asosan "to be + adjective" birikmasi yordamida ifodalananadi, ammo uni stativ (holat) sintaksemadan farqlash kerak. Ammo olima kvalitativ modal sintaksemani aniqlash bilangina chegaralanadi. Ularni bir-biridan farqlashda kvalitativlikni ifodalagan birlikning komparativlikni ifodalovchi shakllarini qo'shimcha qilishi mumkin: will be great → greater yoki more great; will be fine → ... finer; was different → ... more deffirent.⁶³

Demak, yadro predikativ 2 o'rnila kelgan sintaktik birliklar kvalifikativ kvalitativ sintaksemani ifodalashi natijasida yadro predikativ aloqa asosida yadro predikativ 1 o'rnila kelgan noaniq olmoshlarga yuklatiladi. Shuning uchun ham everything substansial kvalitativlik yuklatilgan indefinite sintaksema hisoblanadi.

(10) Everything will be fine.

(11) Everything was different.

⁶³ Иванова И.П., Чахоян Л.П. История английского языка.– Москва: Высшая школа, 1976.– 319 с.

Substansial stativ yuklatilgan indefinit sintaksemani qo'shimcha qilish transformasiya metodidan foydalanib, ya'ni yadro predikativ 2 komponenti o'rnida kelgan cintaktik birliklarga to feel yoki to be in a state of leksemalarini qo'shimcha qilish bilan isbotlash mumkin:

12. Everyone had been in...a hurry.

13. Someone lay drunk in the street.

Stativ sintaksemani aniqlashda 12, 13-gap qurilmasida yadro predikativ 2 o'rnida kelgan had been in a hurry, lay drunk sintaktik birliklari, to be in a state of, to feel kabi birliklar asosida isbotlanishi mumkin. Ular, asosan, yadro predikativ 1 o'rnida Everyone, Someone komponentlarning belgisini ifodalaydi. O.E.Filimonovaning qayd qilishicha, stativ sintaksema kategorial sintaktik-semantik belgilardan kvalifikativlik doirasida aniqlanadi [126; 9-b.]. Ammo, aytish joizki, stativlik kategorial belgilardan substansiallik va prosessuallik doirasida ham ifodalanishi mumkin. Bu masalaga atroflicha to'xtalmasdan, ushbu faslda bizning vazifamiz gap qurilmasida ega o'rnida kelgannoaniq olmoshlarni sintaksem tahlil qilishdan iboratdir. Demak, ushbu misollarda everyone, someone substansial stativ (holat) yuklatilgan indifinit sintaksemani ifodalaydi. Ularning sintaksem modeli quyidagicha:

(12) Everyone had been in a hurry → everyone had been in a state of hurry SbStInd. QlfSt;

(13) Someone lay drunk.... → someone was in a state of drinking. SbStInd.PrSt.

Noaniq olmoshlar yadro predikativ 1 o'rnida posessiv, ekzistensial sintaksemalarni ham ifodalashi mumkin.

14. Everyone had a green tinge.

15. Someone had been having big thinks.

Ushbu gaplar tarkibida yadro predikativ 2 o'rnida kelgan had (14) had been having (15) sintaktik birliklar, A.I.Smirniskiyning ta'kidlashicha, alohida kesim vazifasini bajarmasdan, ular had....a tinge, had been having...thinks birgalikda ob'ekt kesim (ob'ektnoe skazuemoe) ni ifodalaydi. Chunki had (have, has) fe'l'i yolg'iz kesimni anglatmaydi. Bu fikrga nisbatan A.M.Muxin o'z munosabatini quyidagicha bildiradi: "Esli je schitatisya s neobxodimostiyu odnovremennogo opredeleniya i pervogo elementa v kajdom iz ukazennix predlojeniy, to mi pridem k sovershenno inomu chleneniyu etix predlojeniy". Olimning fikriga asoslanib, aytish mumkinki, gap tarkibidagi ...a tinge, thinks yadro predikativ 2 o'rnidagi had, had been having birliklarga subordinativ aloqa bilan bog'lanadi. Kesim o'mida kelgan unsurlar posessiv (egalilik) sintaksemani va yadro predikativ aloqa asosida noaniq olmoshlar bilan bog'langani bois everyone, someone— posessiv sintaksemani ifodalaydi va uni isbotlashda quyidagi transformasiyaga tushirish mumkin:

14. Everyone had a green tinge → everyone's tinge

15. Someone had been having big thinks → someone's thinks

Bu tahlil natijasidan ma'lumki, gaplardagi noaniq olmoshlar substansial indefinit posessiv sintaksemani ifodalaydi. Ularning sintaksem modellari:

(14) SbIndPs *PrPs*Q1fQ1t*SbOb;

(15) SbIndPs*PrPs*Q1fQ1t*SbOb;

Yuqorida qayd qilinganidek, ekzistensial sintaksemani aniqlash ham bahsli masala hisoblanadi.

16. Everyone was in England.

17. Everything is in the car.

Bu gaplarda ham predlogli birliklar in England va in the car shaxsli fe'l was va inEnglandbilan subordinativ aloqa asosida bog'langan.

FOYDALANILGAN ADABiYOTLAR:

1. Akbulatova A.M. Roditeliniy podej v strukture predlojeniy sovremennoogo angliyskogo yazika. Avtoref. diss... kand. filol. nauk. -Leningrad: LOIYa, 1984. – 21 s.
2. Antipina N.A. Sostavnie sintaksicheskie elementi “modaliniy glagol + infinitiv” i modalinie konstruksii v strukture predlojeniy sovremennoogo angliyskogo yazika. Avtoref. diss... kand. filol. nauk. -Leningrad, 1974. – 20s.
3. Asadov R.M. Ingliz tili sodda gap qurilmalarida monovalentli va polivalentli komponentlarning sintaksem tahlili // Filol. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD). diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 53b.
4. Иванова И.П., Чахоян Л.П. История английского языка.– Москва: Высшая школа, 1976.– 319 с.
5. Ильиш Б.А.История английского языка. –Москва: Высшая школа, 1963. – 120 с.
6. Имамназаров Т.А. К функционально-семантической характеристике глагольных аналитических конструкций// Функция и семантика лингвистических единиц, –Ташкентский государственный педагогический институт им.Низами, 1983. – С. 109-113.